



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIM VA TARBIYASIDA O'YINLARDAN FOYDALANISH

Azizova Ziroatxon Baxodirovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Tursunaliyeva Nigoraxon, Norboyeva Mohiraxon

Qo`qon davlat pedagogika instituti talabalari

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samarali ta'lim shakllari va usullarini ishlab chiqish, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga va sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi omillarni muntazam nazorat qilib borishni taqozo etadi.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi 802-son qarorida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'yin to'plamlari va o'yinchoqlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga muvofiq bolalarga o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish ta'lim jarayonini tashkil qilishning asosiy mazmunlaridan biri hisoblanadi. O'yin – bu inson hayotining doimiy ravishdagi ajoyib va unutilmas hodisasi hisoblanadi. Shu bois, bu faoliyat e'tiborsiz qaralganda befoйда, ayni paytda, jiddiy qaralganda zaruriy va o'ta muhim jarayon bo'lib tuyuladi. Qaysiki, beixtiyor jozibali va o'ziga xos hayotiy hodisa sifatida o'yin ilmiy tafakkur uchun jiddiy va murakkab muammo yoki amaliy harakatlar tizimi bo'lib chiqdi. Yana bir bor o'yin haqida, jiddiy o'ylab ko'rish, ilmiy tahlillar asosida maqsadli xulosalar shakllantirish o'ta dolzarb intilish hisoblanadi. Pedagogika va psixologiya fanlari tarmoqlarida o'yin faoliyati muammosi ko'plab ilmiy izlanuvchilar tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda.

O'tmish pedagog olimlari tomonidan turli o'yinlar va ularning natijalariga oid nazariyalar ishlab chiqilgan. O'yinning ma'lum mohiyatlarga qaratilgan oddiy mehnat jarayoni asosida paydo bo'lganligi va uning yosh avlodni maqsadli faoliyatga tayyorlashda o'yin mazmunining bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati muhim o'rin tutadi. Aynan, insonlar shaxsiga bog'liq madaniyat va san'at yo'nalishlari kelib chiqishi o'rganilganda bolalar o'yinlariga alohida e'tibor qaratilishi jiddiy xususiyatlardan biri bo'lib, kishilik jamiyati tarixida o'yinlar madaniyat va san'at paydo bo'lishida, turli mazmunlar va qarashlar vujudga kelishida muhim vosita bo'lib hizmat qilgan. Qolaversa, urf-odat, ana kabi milliy tarixiy ildizlar shakllanishiga muhim zamin bo'lgan. Pedagogika va psixologiya fanlari tarmoqlari ixtisosliklarida aynan shu masalaga qaratilgan jiddiy izlanishlar olib borilishi o'z qiymatini kamaytirgan emas. Jumladan, xorijdagi turli tadqiqotchilar o'yin nazariyasini o'rganish bilan harakatlar tizimini yanada takomillashtirib bormoqdalar. Ilmiy izlanuvchilar o'yinning ko'p qirrali hodisa ekanligi, ya'ni hodisaning namoyon bo'lish jarayonini aks ettiradi, ammo hech kim uning asl mohiyatini butkul qamrab olish imkoniyatiga yoki ilmiy tahliliga ega bo'lmaydi.

Tadqiqotlarda o'yinning mohiyatini keyingi jiddiy faoliyatga tayyorgarlik sifatida ko'riladi. O'yinda, jismoniy mashqlar bajarilib, shaxs o'z qobiliyat va imkoniyatlarini yaxshilaydi. Ayniqsa, bunday mazmunda e'tiborga erishgan nazariyaning asosiy afzalligi shunda iboratki, ilmiy izlanuvchilar o'yinni shaxsning biologik va mantiqiy rivojlanish bilan bog'laydi va uning ma'nosini rivojlanishdagi maqsadidan izlaydi. Bunday asosiy kamchiliklar shundaki, bu nuqtai nazar o'yinning asl ma'nosini tor doirada ko'rsatadi, o'yinning manbasini izlamasdan, oddiy tashkil etilishiga e'tibor qaratadi. Unda tanlangan o'yinni keltirib chiqaradigan sabablarini, o'yinni qo'zg'atuvchi jihatlarni ochib bermaydi



Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects (Spain)

yoki asl mohiyatini sinchiklab o`rganishmaydi. Aslida, “o`yindan – o`t chiqar” degan tushuncha mavjudligi hech kimga sir emas. Shu bois turli shakldagi o`yinlar manbalarini ko`rsatishga harakat qilinganda, turli o`ziga xos xususiyatlarni hisobga olish muhim o`rin tutadi. Bir e`tibor berish kerak! Inson o`yinlarini xuddi hayvonlar o`yinlari kabi tushunib, ayni jiddiy holatga xato baho berib, biologik omilga, sezgi oqibatiga butunlay e`tiborni kamaytirishadi. Demak, shaxs rivoji uchun o`yinning ahamiyatini ochib berish har jihatdan ilmiy izlanishlarda jiddiy e`tibor qaratishni talab etadi. Xususan, o`yin nazariyasida, o`yin manbai ortiqcha kuch yoki imkoniyatda ko`rinishi mumkin. Bunda, hayotda va ishda sarflanmagan imkoniyatlarga o`yin orqali inson ortiqcha kuch yoki yo`l topadi. O`yinda sarflanmagan kuchlar zaxirasi borligi, ular nimaga sarflanishini, nima uchun ular boshqa harakatlarga emas, o`yinga ishlatilishini tushuntirib berish muhim izlanish hisoblanadi.

Bundan tashqari, oddiy holatda charchagan odam dam olish uchun o`yinga o`tadi va albatta, jiddiy e`tiborni ana shunga qaratish zarur.

Darhaqiqat, inson o`yinning fizikaviy nuqtai nazardan dinamik tomonini uning mazmunidan ajratib olishini anglashi yoki ilmiy hodisa sifatida qarashi, aslida tabiiy hodisa sifatida tushunishni ilmiy cheklaydi. Shuning uchun bunday nazariya o`yinning ahamiyati yoki maqsadini tom ma`noda batafsil tushuntirib berish uchun ilmiy nuqtai nazarlar va ilmiy tahlillarni talab etadi. O`yin motiv (qiziqtirish)larini ochib berish o`yinning asosiy motivi (jalb etuvchisi) sifatida harakatchan doimiy zavq-shavq nazariyasini ya`ni, natijadan qat`iy nazar, harakatning o`zidan lazzatlanish mumkinligi bor haqiqat.

O`yin nazariyasi zavqlanish yoki g`olib bo`lishga intilish natijasida hosil bo`ladigan faoliyat sifatida, bu harakatning o`ziga xos ifodasi, ya`ni inson faoliyati lazzatlanish yoki zavqlanish, qolaversa ma`lum xulosalarga kelish tamoyili asosida vujudga keladi, deb hisoblaydigan ijodiy qarash hisoblanadi. Biroq, amalda shaxs o`yiniga oid amaliy nazariyalarda hayotdan uzoqlashgan yoki sezilmay qolgan holatda chetlangan imkoniyatlar va muhim istaklarning amalga oshishi ko`rinadi, chunki o`yinda ko`p hollarda hayotda amalga oshirib bo`lmaydigan ko`plab sinov-tajribalar o`tkazilishi muhim o`ziga xos xususiyat. Ilmiy izlanishlar oqibatida o`yin haqidagi tushuncha, amaliy hayotdan qochib, jiddiy kurashishga qodir bo`lmagan sub`ektning pastligi yoki kuchsizligi o`yinda namoyon bo`lishidan kelib chiqish ehtimollari mavjudligi bor haqiqat. Shunday qilib, o`yin jaryonida hayotning go`zalligi va jozibasini o`zida mujassam etgan ijodiy qizg`in faoliyatning namoyon bo`lishidan harakatlarning hayotiyligidan ko`chirilgan narsalarning chiqarib tashlanishiga olib kelishi holati uchrashi mumkin bo`ladi. Amalda bolalar o`yini oqibatida shaxs va uning rivojlanish omilidan asta-sekin yetishmovchilik va kamchilik ifodasiga aylanishi mumkin. Aslida, bolalarda katta hayotga tayyorgarlik jarayoni boshlanishida mohiyatan o`yindan asliyatga kelishga tayyor bo`lish muhim ahamiyatga ega bo`ladi va bu mohiyatni izlanish jarayonida takomillashtiriladi.

Hayotdagi o`yin sifatida ko`ringan harakatlarga haqiqiy halol o`yin sifatida qarash, hamda bola uchun hayoliy vaziyatni jiddiylik sari shakllantirib, uning muhimligini bajarib, atrofdagi insonlar harakatiga bergan ma`nosiga muvofiq harakat qilishni o`ylashni paydo qilish har qanday maqsadli harakatlarning muhim xususiyatlari hisoblanadi.

O`yin jarayonining asosiy maqsadlari va uning imkoniyatlari juda muhim hayotiy xulosalarga ega bo`lishga olib kelishi bilan qadriyatli va qadimiydir. Masalan, o`yin jarayoni manbalarini oshkor qilmay turib, o`yin holatining tuzilishiga e`tibor qaratish lozim. O`yinda asl ma`nolarning uzatilishi, xayoliy vaziyatga o`tish o`yin manbai emas. Haqiqiy vaziyatdan hayoliy holatga o`tishni o`yin manbai sifatida talqin qilishga urinishni faqat o`yinning biologik analitik nazariyasining aks-sadosi sifatida tushunish mumkin bo`ladi. Agar o`yin vaziyatining ma`noli uzatilishi natijasida yuzaga kelgan talqini va bundan ham ko`proq, o`yinni ma`no bilan o`ynash zaruratidan chiqarishga urinish, faqat intellektuallik (o`ziga xos va o`ziga yarashalik) keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, ijodiy yondashish yuqori talablarga javob beradigan o`yin shakllari uchun zarur bo`lsada, lekin xayoliy (hayotiy) vaziyatda hosil bo`lgan harakat dalilini har qanday o`yin uchun boshlang`ich va shuning uchun majburiy holga aylantirish juda muhim o`ringa ega bo`ladi. Sir emas, har qanday inson



o`zboshimchalik bilan hayoliy vaziyat yoki maqsadli intilish shakllantirmaydi. Shuning uchun o`yinning ilk shakllarida maqsadning dastlabki tushunchalari chiqarib tashlanishini tarbiyachi jiddiy kuzatuv ostiga olib kelishi muhim o`ringa egaligini qat`iy tartib bilan bajarishi lozim bo`ladi. O`yinning bunday dastlabki shakllarini chiqarib tashlash, ba`zi bir hollarda nazariy jihatdan o`z rivojlanishida bolalarning o`yinni tasvirlashga imkon bermaydigan holatlari kelib chiqadi.

Ilmiy izlanishlarda o`yinning jiddiy oqibatlari allaqachon ilg`or sanalgan va oddiy hayotda hali qo`llanilmagan harakatlar an`anasini ko`rish mumkin bo`ladi. Buni xushyorlik bilan har qanday yoshda sinchiklab tahlil qilish o`ta muhim bo`ladi. Shunga qaramay, "hazil-ichi zil" o`yin jarayonida bo`lgani kabi, o`yin - bu ijobiy emas, salbiy hodisa sifatida tushunilishi muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Bu holat mazmunan ustun turadi. Bu kabi qarashlar bilan o`yinlar juda yaxshi, lekin bunda o`yin nazariyasining jiddiy kamchiliklari shundaki, u o`yinni atrofdagi dunyo bilan o`yindagi oqibatlarning mahsuli sifatida jiddiy kamchiliklar ko`rinishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim o`yinlar amaliy hayot ehtiyojlaridan munosabatlarda tug`iladigan faoliyat sifatida emas, balki yetuk harakatlar ichidagi xulosalar sifatida, inson tuzilmalarining kuchayishi yoki kuchsizlanishi kelib chiqish holatlaridan iborat deb tushunishga olib keladi. Afsus, birgina o`yin shu kabi jiddiy oqibat va sabablarga olib keladi, deb tushunish o`ta mas`uliyatli va muhim hodisa bo`ladi. Shuning uchun jiddiy oqibatlar sababidan kelib chiqib, o`yin qandaydir tarzda tashqi to`ldirilgan haqiqiy tarkib bilan bog`liq bo`lmagan rasmiy faoliyatga aylanishini tushunish jiddiy qarash hisoblanadi.

O`yin "mohiyati"ning bunday xulosalanishi haqiqiy o`yinning o`ziga xos xususiyatlarida ifodalash hamda ilmiy anglab yetishni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida <http://lex.uz/docs/-4327235>
2. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida <http://lex.uz/docs/-4327235>
3. <http://lex.uz/docs/-3805404> O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida
4. <http://lex.uz/ru/docs/-5179335> Maktabgacha ta`lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to`g`risida
5. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan davlat talablari Ro`yxatdan o`tish. 03.07.2018 yildagi 3032-son.
6. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISHNING AFZALLIKLARI (TRIZ TEXNOLOGIYALARI)." " *ONLINE-CONFERENCES* " PLATFORM. 2023.
7. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "O`QUVCHILARDA XULQ-ATVOR SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA XALQ OG`ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISH." *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III* (2023): 94-98.
8. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
9. Anvarovna, Sultonova Nurxon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).



10. Bakhodirovna, Halkuzieva Dilnoza. "Personality-Oriented Education in the Development of Creative Activities of Future Educators." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 1.8 (2023): 432-435.
11. Султонова, Нурхон Анваровна. "Теоретические основы подготовки детей в современных условиях к социальной жизни в семье." *Scientific progress* 1.6 (2021): 631-635.
12. Султонова, Нурхон. "ОРГАНИЗАЦИЯ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРАХ." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).
13. F.Qodirova Maktabgacha pedagogika-Toshkent 2019 yil